



Dildora ABDULLAYEVA,
Dotsent, PhD, Toshkent amaliy fanlar universiteti, Toshkent, O'zbekiston
E-mail: adildora0101@gmail.com, ORCID iD: 0009-0009-5702-0786

ToshDO'TAU professori, f.f.d M.Hakimova taqrizi asosida

CONCEPTUAL-SEMANTIC BOUNDARIES OF OPPOSITION AND NEGATION IN THE UZBEK LANGUAGE

Annotation

The article examines the conceptual foundations and semantic boundaries of opposition and negation, as well as the specific features of their linguistic realization in Uzbek. Logical-semantic, lexical-semantic, typological, pragmatic, and psycholinguistic approaches developed in international linguistics are comparatively analysed in order to clarify the relationship between these phenomena in human cognition and the language system. Particular attention is paid to conceptual polarization, semantic gradability, boundedness, the scope of negation, and context-dependent interpretation. Drawing on the semantic and functional properties of linguistic devices in Uzbek, the study generalizes the distinctions and points of intersection between opposition and negation, together with the regularities governing their semantic realization.

Key words: Category of opposition, semantics of negation, conceptual polarization, semantic delimitation, semantic alternatives.

КОНЦЕПТУАЛЬНО-СЕМАНТИЧЕСКИЕ ГРАНИЦЫ ПРОТИВОПОСТАВЛЕНИЯ И ОТРИЦАНИЯ В УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКЕ

Аннотация

В статье рассматриваются концептуальные основы и семантические границы противопоставления и отрицания, а также особенности их языковой реализации в узбекском языке. На основе сравнительного анализа логико-семантических, лексико-семантических, типологических, прагматических и психолингвистических подходов, представленных в мировой лингвистике, уточняется соотношение данных явлений в мышлении и системе языка. Особое внимание уделяется концептуальной поляризации, градуальности значения, ограниченности, сфере действия отрицания и контекстуальной интерпретации. На основе семантических и функциональных особенностей языковых средств узбекского языка обобщаются различия и точки соприкосновения противопоставления и отрицания, а также закономерности их семантической реализации.

Ключевые слова: Категория противопоставления, семантика отрицания, концептуальная поляризация, семантическое разграничение, семантическая альтернативность.

O'ZBEK TILIDA QARAMA-QARSHILIK VA INKORNING KONSEPTUAL-SEMANTIK CHEGARALARI

Annotatsiya

Maqolada qarama-qarshilik va inkorning konseptual asoslari, semantik chegaralari hamda o'zbek tilida lisoniy voqelanish xususiyatlari yoritiladi. Jahon tilshunosligidagi mantiqiy-semantik, leksik-semantik, tipologik, pragmatik va psixolingvistik qarashlar qiyosiy tahlil qilinib, mazkur hodisalarning tafakkur va til tizimidagi o'zaro munosabati aniqlashtiriladi. Tahlilda konseptual qutblanish, ma'no darajalanishi, chegaralanganlik, inkor qamrovi kabi masalalarga e'tibor qaratiladi. O'zbek tilidagi lisoniy vositalarning semantik hamda funksional xususiyatlari asosida qarama-qarshilik va inkorning farqlanishi, tutashuv nuqtalari va lisoniy voqelanish qonuniyatlari umumlashtiriladi.

Kalit so'zlar: Qarama-qarshilik kategoriyasi, inkor semantikasi, konseptual qutblanish, semantik chegaralanish, semantik alternativlik.

Kirish. Qarama-qarshilik va inkor borliq hodisalarini farqlash, chegaralash va ular haqida hukm yuritishga xizmat qiladigan lisoniy-kognitiv hodisalaridir. Qarama-qarshilik umumiy semantik asosga ega birliklarning qarama-qarshi qutblarda joylashishini ifodalaydi. Inkor esa muayyan mazmunning mavjudligi, yuz berishi, tasdiqlanishi yoki belgiga muvofiqligini rad etadi. Belgining inkor qilinishi har doim uning qarama-qarshi qutbini anglatmaydi. Ayniqsa, darajalanadigan belgilarda inkor oraliq holatni, belgining sust darajasini yoki uning muayyan vaziyatga mos kelmasligini bildirishi mumkin. Qarama-qarshilik esa birliklarni umumiy mezon asosida qiyoslash va qutblarga ajratishni talab qiladi. Ularning chegarasini belgilashda semantik asos, darajalanish imkoniyati, qiyoslanish mezonlari va kontekst hisobga olinadi.

Maqolaning maqsadi qarama-qarshilik va inkorning konseptual mohiyatini aniqlash, ularning o'zaro munosabati hamda farqlanish mezonlarini yoritishdan iborat.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Qarama-qarshilik a'zolari o'rtasidagi semantik munosabatga ko'ra kontrar, komplementar, yo'nalishli va konversiv turlarga ajraladi. Kontrar birliklar oraliq qiymatlarga ega (katta – kichik), komplementar juftliklarda bir qutb ikkinchisini istisno qiladi (tirik – o'lik). Yo'nalishli birliklar harakatning teskari yo'nalishini (kelmoq – ketmoq), konversivlar ayni munosabatni turli ishtirokchilar nuqtayi nazaridan ifodalaydi. Qarama-qarshilik umumiy ma'no doirasi va yagona qiyos belgisiga asoslanadi. Bunday asos bo'lmasa, tushunchalar o'rtasidagi farq qarama-qarshilik hosil qilmaydi [11].

Antonimiya qarama-qarshilikning lug'aviy tizimda barqarorlashgan, odatda ikki a'zoli shaklidir [11, 10]. Nutqda muntazam birga qo'llanadigan, bir-birini tez faollashtiradigan va semantik o'lchovning asosiy qutblari sifatida anglanadigan birliklar kanonik antonimlarni tashkil etadi [8]. Qarshi ma'nolarning alohida leksemalar yoki derivatsion vositalar

bilan ifodalanishi tilning lug'aviy va so'z yasash tizimiga bog'liq [9]. Inkori gap mazmuni, hodisa, belgi, tasnif yoki mavjudlikni rad etuvchi semantik amal bo'lib, uning talqini qaysi mazmunga qaratilganiga ko'ra belgilanadi [7]. Tipologik tadqiqotlarda standart inkor fe'l kesimli darak gapni rad etishning asosiy grammatik shakli sifatida tavsiflanadi [10, 552–553]. Mavjudlik va ot kesim orqali ifodalangan hukm inkori esa ko'plab tillarda alohida vositalar bilan beriladi [10; 13; 14].

Sifatlarning inkori shakli qarama-qarshilik bilan inkor o'rtasidagi semantik chegarani aniq ko'rsatadi. K.Paradis va K.Uillners darajalanadigan sifat inkori qarshi qutbni bevosita bildirmasligini, aniq chegarali sifatlarda esa antonimik ma'noga yaqinlashishini aniqlagan [12, 1051–1055]. Not cold (sovuq emas) birikmasining qo'llanishi hot (issiq) dan ko'ra cold (sovuq) ga yaqinligi inkor shakli dastlabki sifat bilan semantik aloqasini saqlashini ko'rsatadi [1]. Uning talqini sifatning semantik xususiyati, qutblar o'rtasidagi masofa va kontekstga bog'liq [2; 6]. Neyrolingvistik natijalarga ko'ra, inkor sifat ma'nosini to'liq teskarisiga aylantirmaydi, balki uning faolligini susaytirib, talqinni qarshi qutb tomon yo'naltiradi [15].

Mavjudlik inkori alohida grammatik hodisa sifatida o'rganiladi. U.Kroft mavjud emaslikni bildiruvchi birliklar tarixiy taraqqiyotda umumiy inkor vositasiga aylanishi mumkinligini ko'rsatgan [5]. L.Veselinova bunday birliklar hukmni rad etishdan tashqari, shaxs, predmet yoki hodisaning yo'qligini bevosita ifodalashini asoslagan [13]. Ularning umumiy inkor tizimidagi o'rni tillarga ko'ra farqlanadi [13; 14]. O'zbek tilida -ma qo'shimchasi harakat va holatni, emas yordamchisi ot, sifat va boshqa birliklar orqali ifodalangan hukmni inkor qiladi. Yo'q so'zi shaxs, predmet, belgi yoki egalikning mavjud emasligini bildiradi [3; 4]. Ushbu vositalarning semantik chegarasi, qo'llanish doirasi va qarama-qarshilik bilan munosabati yaxlit nazariy mezonlar asosida yetarlicha o'rganilmagan.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqot qarama-qarshilik va inkorning kognitiv asoslari, konseptual tuzilishi hamda lisoniy voqelanishini o'zaro bog'liq holda o'rganishga qaratildi. Tahlilda lingvokognitiv va konseptual-semantik yondashuvlar asosida mazkur hodisalarning voqelikni idrok etish va mazmuniy tartiblashdagi o'rni, tafakkurda shakllanish xususiyatlari hamda til tizimida ifodalanish yo'llari aniqlandi.

Qiyosiy tahlilda qarama-qarshilik ikki mazmuniy qutbning o'zaro munosabati, inkor esa muayyan mazmunni rad etish yoki uning amal doirasini cheklash sifatida olindi. Inkorning qarama-qarshi ma'noni yuzaga chiqarishi, unga yaqinlashishi yoki boshqa muqobillarni faollashtirishi leksik ma'no, grammatik shakl va kontekst asosida tahlil qilindi.

Tahlil va natijalar. Qarama-qarshilik va inkor o'rtasidagi farq ularning semantik vazifasida namoyon bo'ladi. Qarama-qarshilik umumiy qiyos asosiga ega ikki yoki undan ortiq ma'noni o'zaro munosabatga kiritadi. Inkori esa muayyan mazmunning tasdiqlanishini rad etadi. Masalan, katta – kichik o'lcham belgisining qarama-qarshi qutblarini bildirsa, katta emas aynan kattalik belgisining muayyan predmetga xosligini inkor qiladi. U kelmadi gapida ham kelish hodisasi rad etiladi, biroq uning o'rniga ketish, qolish yoki boshqa bir harakat tasdiqlanmaydi.

Qarama-qarshilik ma'nolarni umumiy qiyos asosida o'zaro bog'lasa, inkor muayyan belgi, tasnif yoki mavjudlikning tasdiqlanishini rad etadi. Uning natijasi rad etilgan mazmunning qarama-qarshi qutbi bilan cheklanmaydi. Masalan, U shifokor emas gapi shaxsning qaysi boshqa kasbga mansubligini ochiq qoldiradi, Bu xona katta emas esa kichik hajm bilan birga o'rtacha yoki muayyan ehtiyoj uchun yetarli bo'lmagan hajmni ham anglatishi mumkin. Bu farqlash qarama-qarshilik va inkor o'rtasida mutlaq chegara mavjudligini anglatmaydi. Inkori natijasida tasdiq va inkor o'rtasida zidlanish yuzaga keladi, qarama-qarshi ma'nolar esa nutqda rad etish yoki tuzatish vazifasini bajarishi mumkin. Shunga qaramay, ularning boshlang'ich semantik maqomi farqlanadi: qarama-qarshilik ma'nolar o'rtasidagi munosabatni, inkor esa muayyan mazmunni rad etishga qaratilgan amalni bildiradi. "A emas" shaklining antonimik ma'noga qay darajada yaqinlashishi qiyoslanayotgan tushunchalarning ichki tuzilishiga

bog'liq. Ikki holat bir-birini to'liq istisno qilgan va oraliq qiymatga yo'l qo'yilmagan hollarda inkor qarama-qarshi qutbni kuchli faollashtiradi. Inkorning antonimik ma'noga yaqinlashishi muayyan nutqiy vaziyatda boshqa talqinlarning mavjud yoki mavjud emasligiga ham bog'liq [2; 12]. Masalan, odatiy biologik talqinda tirik emas ifodasi o'lik ma'nosiga yaqin turadi. Biroq bu holat predikatning lug'aviy mazmuni bilangina belgilanmaydi. Eshik ochiq emas jumlasida eshikning yopiq ekanini, shuningdek, yarim ochiq, to'liq ochilmagan yoki foydalanish uchun ochilmagan holatini ham anglatishi mumkin.

Darajalanadigan belgilarda qarama-qarshi qutblar orasida oraliq qiymatlar mavjud bo'ladi. Shu sababli katta emas faqat kichikni, sovuq emas esa faqat issiqni anglatmaydi. Birinchi ifoda o'rtacha hajm yoki belgilangan me'yorga yetmaslikni, ikkinchisi iliq, mo'tadil yoki kutilganidan kam sovuq holatni bildirishi mumkin. Maydon katta emas bilan Maydon kichik gaplarining mazmuni va baholash kuchi ham to'liq teng kelmaydi. Antonimik birlik bunday hollarda inkorning zaruriy natijasi bo'lmay, kontekstda tanlanadigan talqinlardan biri sifatida namoyon bo'ladi.

Tasnif bir necha kategoriyadan tashkil topganda inkor qilinayotgan tushunchaning yagona qarama-qarshi qutbi mavjud bo'lmaydi. U o'qituvchi emas gapida shaxsning o'qituvchi toifasiga mansubligi rad etiladi, uning boshqa kasb egasi ekanligi ochiq qoladi. Bu holat inkor bilan antonimiyaning semantik tabiati bir xil emasligini ko'rsatadi: antonimiya muayyan qarshi ma'noni bog'lasa, inkor bir tushunchani chiqarib tashlab, qolgan imkoniyatlarni saqlaydi.

Baholovchi sifatlarda inkor talqini ma'no darajasi bilan birga nutqiy maqsadga ham bog'lanadi. Yaxshi emas ko'pincha salbiy bahoga yaqinlashadi, chunki gapiruvchi keskin hukmni bilvosita ifodalashi mumkin. Yomon emas esa odatda yaxshi ma'nosiga to'liq tenglashmay, maqbul, qoniqarli yoki kutilganidan yaxshi mazmunlarini bildiradi. Ushbu nomutanosiblik inkorning antonimik ma'noga aylanishidan kelib chiqmaydi. U baholash darajasi, muqobil ifodalar va kommunikativ maqsad bilan belgilanadi [2; 6].

Inkorning talqini birlik ma'nosining qat'iy yoki darajali tuzilishiga bog'liq. Ma'nosi qat'iy chegaralangan birliklarda inkor qarama-qarshi qutbga yaqin talqin qilinadi. Masalan, rost emas o'zbek tilida odatda yolg'on ma'nosini bildiradi. Darajalanish yoki qisman moslikka yo'l qo'yadigan birliklarda esa inkor boshqa talqinlarni ham yuzaga chiqarishi mumkin. To'g'ri emas ifodasi kontekstga ko'ra xato, noaniq yoki qisman mos kelmaydigan mazmunni anglatadi.

O'zbek tilida bor mavjudlikni tasdiqlovchi, yo'q esa mavjud emaslikni bildiruvchi predikativ birlik sifatida qo'llanadi [3; 4]. Kitob bor gapida predmetning mavjudligi tasdiqlansa, Kitob yo'q gapida ayni mavjudlik hukmi rad etiladi. Shu jihatdan yo'q fe'l kesimli gaplarda qo'llanadigan umumiy inkor ko'rsatkichi bilan bir xil vazifa bajarmaydi, balki mavjud emaslikni bevosita ifodalovchi maxsus predikat hisoblanadi.

L.Veselinova mavjudlik inkori ko'plab tillarda standart fe'l inkoridan alohida vositalar orqali ifodalanishini hamda bunday konstruksiyalarda tasdiqiy mavjudlik hukmiga oddiy inkor qo'shilmadan, mavjud emaslikning o'zi predikatsiyalanishini ko'rsatadi [13, 107–108]. O'zbek tilidagi yo'q ham shu xususiyatga ega: Xonada odam yo'q gapida shaxsning muayyan belgisiga ega emasligi emas, uning mazkur makonda mavjud emasligi bildiriladi. Menda vaqt yo'q va Bu da'voga dalil yo'q kabi tuzilmalarda ham yo'q egalik qilinadigan imkoniyat yoki zarur asosning mavjud emasligini ifodalaydi. Bunda mavjudlik inkori umumiy inkor bilan mazmunan bog'liq bo'lsa-da, semantik va grammatik xususiyatlariga ko'ra alohida hodisadir [13, 140].

Yo'q sifatdosh va egalik shakllari bilan birikkanida hodisaning yuz bermaganini ham bildiradi: U hali kelgani yo'q. Men bunday gapni aytganim yo'q. Bu konstruksiyalarda fe'l anglatgan harakat alohida hodisa sifatida shakllantiriladi, yo'q esa uning ro'yobga chiqqanini rad etadi. L.Veselinova va A.Hamari mavjudlik inkori birliklarining nominallashtirilgan fe'l shakllari bilan qo'llanishi ularning hodisa inkori vazifasiga kengayish yo'llaridan biri ekanini ko'rsatadi [14, 15–16]. Shu asosda o'zbek tilidagi

kelgani yo'q modeli mavjudlik inkori bilan fe'l anglatgan hodisaning inkori o'rtasidagi semantik va grammatik bog'lanishni namoyon etadi.

O'zbek tilidagi inkor vositalari bir mazmunning erkin variantlari emas. Ularning tanlanishi rad etilayotgan mazmunning konseptual turi va inkor qamroviga bog'liq. -ma harakat yoki holatning ro'yobga chiqishini rad etadi. Emas belgi, tasnif yoki aynanlikning muayyan obyektga mosligini inkor qiladi. Yo'q esa predmet, imkoniyat yoki asosning mavjud emasligini bildiradi, sifatdoshli tuzilmalarda esa hodisaning yuz bermaganini ifodalashga xizmat qiladi.

Hech kim, hech narsa, hech qachon kabi birliklar inkorning yangi turini hosil qilmaydi, uning qamrovini muayyan to'planning barcha a'zolariga yoyadi. Hech kim kelmadi gapida hech kim va -ma ikki mustaqil inkorni emas, yagona rad mazmunining o'zaro bog'langan ifodasini yuzaga keltiradi. Na... na konstruksiyasida esa sanalgan muqobillarning barchasi inkor qamroviga olinadi. Shu jihatdan mazkur vositalar inkorning mohiyatini emas, uning qaysi imkoniyatlarga tatbiq etilishini belgilaydi.

Inkor hodisani bir toifadan chiqarib, boshqa toifaga kirituvchi qayta tasniflash amalini bajaradi [7]. Masalan, A emas, balki B tuzilmasida dastlabki nomlash bekor qilinib, hodisa boshqa konseptual asosda izohlanadi: Bu zaiflik emas, ehtiyotkorlik. Bu yerda ikkinchi tushuncha birinchisining antonimi emas. Noaniq, noto'g'ri, befoyda, ishsiz kabi birliklarda inkor yoki yo'qlik ma'nosi so'zning tarkibiy mazmuniga singib, mustaqil leksik ma'no hosil qilgan. Shu sababli ular nutqda muayyan mazmunni bevosita rad etuvchi shakllar bilan to'liq tenglashmaydi. Masalan, noto'g'ri bilan to'g'ri emas, ishsiz bilan ishi yo'q barcha nutqiy vaziyatlarda bir xil mazmunni anglatmaydi. Bu farq so'z tarkibida shakllangan yo'qlik ma'nosi bilan muayyan mazmunga tatbiq etiladigan inkor amalini ajratish imkonini beradi.

Xulosa va takliflar. Tahlil qarama-qarshilik va inkorni bir semantik sahga mansub hodisalar sifatida talqin qilish ularning mohiyatini to'liq ochmasligini ko'rsatdi. Qarama-qarshilik

konseptual maydon tarkibidagi qiymatlarni o'zaro munosabatga kiritadi, inkor esa shu maydonga tegishli muayyan hukmning amal qilishini rad etadi va talqin yo'nalishini o'zgartiradi. Ularning tutashuvi semantik tizim bilan rad etish amalining o'zaro ta'siriga asoslanadi.

Inkorning qarshi qutbga yaqinlashish darajasi predikatning ichki semantik tuzilishi, kategorial chegarasi va muqobillar ko'lamiga bog'liq. Shu sababli inkor natijasi barcha birliklarda bir xil shakllanmaydi. Qat'iy chegaralangan ma'nolarda talqin muayyan qutbga yo'nalsa, darajali va ko'p a'zoli tuzilmalarda semantik imkoniyatlar doirasi kengroq saqlanadi. Kontekst ushbu imkoniyatlardan birini faollashtiradi, biroq qarshi ma'noni inkorning doimiy natijasiga aylantirmaydi.

O'zbek tilidagi inkor vositalarining taqsimlanishi rad etilayotgan ma'noning konseptual va grammatik turiga asoslanadi. Harakat, belgi, aynanlik va mavjudlikning alohida vositalar orqali inkor qilinishi ushbu kategorianing ichki tizimga egaligini ko'rsatadi. Mavjudlik inkorning hodisa inkoriga kengayishi yo'q vositasining predmet mavjudligini rad etishdan voqea-hodisaning yuz bermasligini ifodalashgacha bo'lgan semantik-funksional ko'lamini ko'rsatadi.

Tadqiqot qarama-qarshilik va inkorni farqlashda ma'noning shakllanish tamoyili asosiy mezon ekanini ko'rsatdi. Qarama-qarshilik qiyoslanuvchi ma'nolarni qutblar asosida tizimlashtiradi, inkor esa muayyan mazmunning amal qilishini rad etib, boshqa semantik imkoniyatlarni saqlaydi. Shu bois mazkur hodisalar ma'noni shakllantirish mexanizmiga ko'ra mustaqildir.

Shunday qilib, o'zbek tilidagi inkor vositalari rad etilayotgan mazmunning turi, qamrovi va ifoda shakliga ko'ra ichki farqlangan yaxlit tizimni tashkil etadi. Mavjudlik, hodisa, holat va belgi inkori ushbu tizimning o'zaro bog'langan, semantik qurilishi bilan farqlanuvchi ko'rinishlaridir. Bu ichki farqlanish lug'aviy qarama-qarshilik, grammatik inkor va mavjudlik inkorini alohida tahlil mezonlarini talab qiladigan, o'zaro aloqador semantik hodisalar sifatida o'rganishni taqozo etadi.

ADABIYOTLAR

1. Aina L., Bernardi R., Fernández R. A Distributional Study of Negated Adjectives and Antonyms // *Proceedings of the Fifth Italian Conference on Computational Linguistics (CLiC-it 2018)*. – CEUR Workshop Proceedings, 2018. – Vol. 2253. – P. 8–14.
2. Alexandropoulou S., Gotzner N. The Interpretation of Relative and Absolute Adjectives Under Negation // *Journal of Semantics*. – 2024. – Vol. 41, No. 3–4. – P. 373–399. – DOI: 10.1093/jos/ffae012.
3. Bodrogligeti A. J. E. An Academic Reference Grammar of Modern Literary Uzbek: in 2 vols. – München: LINCOM Europa, 2003. – Vol. I–II.
4. Boeschoten H. Uzbek // *The Turkic Languages* / ed. by L. Johanson, É. Á. Csató. – 2nd ed. – London; New York: Routledge, 2022. – P. 388–408. – DOI: 10.4324/9781003243809-25.
5. Croft W. The Evolution of Negation // *Journal of Linguistics*. – 1991. – Vol. 27, No. 1. – P. 1–27. – DOI: 10.1017/S002226700012391.
6. Gotzner N., Mazzarella D. Negative Strengthening: The Interplay of Evaluative Polarity and Scale Structure // *Journal of Semantics*. – 2024. – Vol. 41, No. 1. – P. 103–117. – DOI: 10.1093/jos/ffae004.
7. Horn L. R. A Natural History of Negation. – Stanford, CA: CSLI Publications, 2001. – 684 p.
8. Jones S., Murphy M. L., Paradis C., Willners C. Antonyms in English: Construals, Constructions and Canonicity. – Cambridge: Cambridge University Press, 2012. – DOI: 10.1017/CBO9781139032384.
9. Koptjevskaja-Tamm M., Miestamo M., Börstell C. A Cross-Linguistic Study of Lexical and Derived Antonymy // *Linguistics*. – 2024. – Vol. 62, No. 6. – P. 1417–1472. – DOI: 10.1515/ling-2023-0140.
10. Miestamo M. Negation – An Overview of Typological Research // *Language and Linguistics Compass*. – 2007. – Vol. 1, No. 5. – P. 552–570. – DOI: 10.1111/j.1749-818X.2007.00026.x.
11. Murphy M. L. Semantic Relations and the Lexicon: Antonymy, Synonymy and Other Paradigms. – Cambridge: Cambridge University Press, 2003. – 304 p. – DOI: 10.1017/CBO9780511486494.
12. Paradis C., Willners C. Antonymy and Negation: The Boundedness Hypothesis // *Journal of Pragmatics*. – 2006. – Vol. 38, No. 7. – P. 1051–1080. – DOI: 10.1016/j.pragma.2005.11.009.
13. Veselinova L. Negative Existentials: A Cross-Linguistic Study // *Italian Journal of Linguistics*. – 2013. – Vol. 25, No. 1. – P. 107–145.
14. Veselinova L., Hamari A. Introducing the Negative Existential Cycle // *The Negative Existential Cycle* / ed. by L. Veselinova, A. Hamari. – Berlin: Language Science Press, 2022. – P. 1–55. – (Research on Comparative Grammar, 2). – DOI: 10.5281/zenodo.7353599.
15. Zuanazzi A., Ripollés P., Lin W. M., Gwilliams L., King J.-R., Poeppel D. Negation Mitigates Rather Than Inverts the Neural Representations of Adjectives // *PLOS Biology*. – 2024. – Vol. 22, No. 5. – Art. e3002622. – DOI: 10.1371/journal.pbio.3002622.